AQSH xalqaro soliq munosabatlarini tartibga solishda nafaqat xalqaro shartnomalarga, balki ichki qonunchilikdagi samarali institutlarga ham tayanadi. Xususan, Foreign Tax Credit (FTC) mexanizmi xorijda to'langan soliqlarni AQSHdagi soliq majburiyatlaridan chegirish imkonini berib, ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishning amaliy vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur mexanizm soliq to'lovchilarni ikki karra soliq yukidan himoya qilish bilan birga, ular tomonidan daromadlar va to'langan soliqlar yuzasidan aniq hujjatlar yuritilishini ham talab qiladi.

Shu bilan birga, AQSHda Controlled Foreign Corporation (CFC) konsepsiyasi ham amalda qo'llaniladi. Mazkur mexanizm AQSH rezidentlari tomonidan nazorat qilinadigan chet el kompaniyalari daromadlarini aniqlash va ularni muayyan hollarda AQSHda soliqqa tortish imkonini beradi. Bu esa xalqaro miqyosda soliqdan qochish holatlarini cheklashga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvni o'rganish O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

AQSH xalqaro soliq siyosatida axborot almashinuvi mexanizmlari ham alohida o'rin tutadi. Xususan, Foreign Account Tax Compliance Act (FATCA) asosida xorijiy moliya institutlaridan AQSH fuqarolariga tegishli hisobvaraqlar to'g'risidagi ma'lumotlarni olish tartibi yo'lga qo'yilgan. Ushbu mexanizm xorijdagi daromad va aktivlar ustidan nazoratni kuchaytirish, yashirin moliyaviy resurslarni aniqlash va soliq intizomini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunday tajribani O'zbekiston sharoitiga moslashtirish daromadlarning haqiqiy manbalarini aniqlash va soliq ma'murchiligini takomillashtirishda muhim omil bo'lishi mumkin.

So'nggi yillarda O'zbekiston ham xalqaro soliqqa tortish sohasida islohotlarni jadallashtirmoqda. Xususan, ikki tomonlama soliq shartnomalari tarmog'ini kengaytirish, xalqaro standartlarga mos soliq mexanizmlarini joriy etish hamda OECD tomonidan ilgari surilgan BEPS (Base Erosion and Profit Shifting) tashabbuslari doirasidagi tamoyillarni amaliyotga tatbiq etish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayon xalqaro soliq shaffofligini ta'minlash, foydani sun'iy ko'chirish holatlarining oldini olish va adolatli soliqqa tortish tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

AQSH tajribasini O'zbekiston amaliyotiga moslashtirishda quyidagi yo'nalishlarga ustuvor e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- soliq krediti mexanizmini yanada takomillashtirish;
- soliq rezidentligi va daromad manbaini aniqlash mezonlarini aniq belgilash;
- iqtisodiy mazmunning huquqiy shakldan ustunligi prinsipini qonunchilikka izchil joriy etish;
- xalqaro standartlar asosida axborot almashinuvini rivojlantirish;
- ikki tomonlama soliq shartnomalari geografiyasini kengaytirish.

AQSHning ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish borasidagi tajribasi tizimli, huquqiy jihatdan puxta asoslangan va biznes subyektlari uchun qulay mexanizmlarga ega. Mazkur tajriba O'zbekiston uchun ham muhim ilmiy-amaliy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Xususan, milliy qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro shartnomaviy-huquqiy bazani mustahkamlash va soliq organlari o'rtasida samarali axborot almashinuvini yo'lga qo'yish orqali ikkiyoqlama soliqqa tortish muammosini sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Bu esa nafaqat soliq to'lovchilar manfaatlarini himoya qiladi, balki mamlakat investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va xalqaro iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro soliqqa tortish sohasidagi dastlabki nazariy tadqiqotlar Brian J. Arnold, Michael J. McIntyre kabi olimlar tomonidan olib borilgan. Ularning ilmiy ishlari xalqaro soliq munosabatlari, daromad manbai, rezidentlik maqomi hamda transchegaraviy daromadlarni soliqqa tortish masalalarining nazariy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Miles Dead va Richard Williamsning Introduction to the Law of Double Taxation Conventions nomli asarida ikki tomonlama soliq shartnomalarining huquqiy va amaliy jihatlarini chuqur yoritilgan. Mazkur asarda, ayniqsa, “rezidentlik” va “manba davlat” tushunchalarining vujudga kelishi, ularning soliq yurisdiksiyasini belgilashdagi oʻrni hamda soliq yukini taqsimlashdagi ahamiyati batafsil tahlil qilingan.

Reuven S. Avi-Yonah va L. Richardning US International Taxation asari esa AQSH xalqaro soliq tizimining oʻziga xos xususiyatlarini ochib beradi. Unda soliq krediti, global daromad konsepsiyasi, Controlled Foreign Corporation (CFC) instituti hamda Subpart F Income kabi tushunchalar amaliy misollar asosida yoritilgan. Mazkur manba AQSHning ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish mexanizmlarini tushunishda muhim nazariy asos boʻlib xizmat qiladi.

AQSH Moliya vazirligi va Ichki daromadlar xizmati (IRS) tomonidan eʼlon qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlar hamda rasmiy sharhlar ushbu mavzuni oʻrganishda eng ishonchli manbalar sirasiga kiradi. Jumladan, Internal Revenue Code (IRC), Subpart A va F qoidalari AQSH rezidentlari va kompaniyalarining xalqaro soliq majburiyatlarini belgilab beradi. IRS Publication on Foreign Tax Credit esa xorijda toʻlangan soliqlar boʻyicha kredit berish tartibini tushuntiradi.

Shuningdek, Tax Cuts and Jobs Act (TCJA, 2017) orqali xalqaro soliqqa tortish tizimiga kiritilgan GILTI (Global Intangible Low-Taxed Income) va FDII (Foreign-Derived Intangible Income) kabi yangi mexanizmlar xalqaro daromadlarni soliqqa tortishning zamonaviy yondashuvlarini aks ettiradi. Bundan tashqari, AQSH Kongressining Soliq boʻyicha qoʻmitasi — Joint Committee on Taxation tomonidan tayyorlanadigan tahliliy hisobotlar xalqaro soliq tizimidagi oʻzgarishlarning iqtisodiy natijalarini baholashda muhim manba hisoblanadi. Ushbu materiallar qonunchilikdagi yangiliklarning investitsiya muhiti, kapital harakati va soliq tushumlariga taʼsirini aniqlash imkonini beradi.

Xalqaro darajada esa Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan ishlab chiqilgan BEPS (Base Erosion and Profit Shifting) dasturi alohida ahamiyatga ega. Xususan, uning 6-sonli hisoboti — Prevention of Treaty Abuse ikki tomonlama soliq shartnomalaridan suiisteʼmol qilish holatlarini cheklash boʻyicha muhim tavsiyalarni oʻz ichiga oladi. Shuningdek, OECD tomonidan chop etilgan Model Tax Convention on Income and on Capital xalqaro soliq shartnomalarini tuzishning asosiy huquqiy modelini belgilaydi. Mazkur modelda ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishning ikki asosiy usuli, yaʼni soliqdan ozod qilish va soliq krediti usullari tavsiya etiladi. AQSH amaliyotida, asosan, soliq krediti usulidan foydalanilishi esa uning xalqaro soliq siyosatining oʻziga xos yoʻnalishini belgilaydi.

2010-yilda qabul qilingan FATCA (Foreign Account Tax Compliance Act) qonuni AQSH fuqarolariga tegishli xorijiy bank hisobvaraqlari boʻyicha axborotlarni oshkor etish tizimini yaratdi. Mazkur qonunga muvofiq, chet el moliya institutlari AQSH rezidentlariga tegishli hisobvaraqlar haqidagi maʼlumotlarni IRSga taqdim etishi shart. Ushbu mexanizm soliq shaffofligini oshirish, yashirin daromadlarni aniqlash va soliqdan boʻyin tovlash holatlarining oldini olishda muhim vosita sifatida namoyon boʻladi.

FATCA va uning Yevropa Ittifoqidagi oʻxshash shakli — CRS (Common Reporting Standard) tizimining solishtirma tahlili D. Spenser kabi tadqiqotchilar ishlarida keng yoritilgan boʻlib, ularda axborot almashinuvining xalqaro investitsion muhitga taʼsiri tahlil qilingan.

Oʻzbekistonda mazkur yoʻnalishdagi tadqiqotlar hali yetarli darajada keng emas, biroq ayrim iqtisodchi va soliq huquqi sohasidagi mutaxassislar tomonidan muhim ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, J. Qudratov, A. Mamarasulov, Sh. Norqobilov kabi olimlar ikki tomonlama soliq shartnomalari, soliq rezidentligini aniqlash mezonlari hamda xalqaro soliqqa tortish masalalariga bagʻishlangan ilmiy ishlari bilan ushbu sohaga munosib hissa qoʻshgan. Ularning tadqiqotlarida xalqaro tajriba, xususan, AQSH modelini Oʻzbekiston soliq tizimiga moslashtirish imkoniyatlari ham tahlil qilingan.

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Davlat soliq qoʻmitasi, Moliya vazirligi hamda Iqtisodiy tadqiqotlar instituti tomonidan tayyorlanadigan tahliliy materiallar ushbu mavzuni milliy nuqtai nazardan oʻrganishda muhim manba boʻlib xizmat qiladi. Mazkur manbalar soliq siyosatini isloh qilish, xalqaro soliq standartlariga moslashish hamda ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish boʻyicha institutsional yondashuvlarni ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

AQSHning ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish tajribasini oʻrganishda yuqorida qayd etilgan ilmiy adabiyotlar, normativ hujjatlar va xalqaro tashkilotlar hisobotlari mustahkam nazariy hamda amaliy asos boʻlib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida tadqiqotni amalga oshirishning umumiy va maxsus usullaridan keng foydalanildi. Xususan, tizimli tahlil usuli orqali ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish metodologiyasining tarkibiy elementlari oʻzaro bogʻliqlikda oʻrganildi.



Tarixiylik va mantiqiylik yondashuvlari yordamida xalqaro soliqqa tortish munosabatlarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilindi. Induksiya va deduksiya usullari asosida umumiy nazariy qarashlardan kelib chiqib xulosalar shakllantirildi hamda alohida holatlar misolida ilmiy umumlashmalar berildi.

Analiz va sintez usullari orqali AQSH tajribasida qo'llanilayotgan mexanizmlar, jumladan, soliq krediti, xalqaro soliq shartnomalari, CFC qoidalar va axborot almashinuvi tizimlari alohida hamda o'zaro uyg'unlikda tadqiq etildi. Qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish usullari vositasida AQSH amaliyoti boshqa xalqaro yondashuvlar bilan solishtirildi va O'zbekiston amaliyotiga mos jihatlari ajratib olindi.

Shuningdek, monografik tahlil va guruhlash usullari yordamida mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va statistik materiallar tizimlashtirilib, tegishli ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

AQSHda ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishda soliq krediti eng keng tarqalgan metod hisoblanadi. Bu usul orqali chet elda to'langan soliq to'liq yoki qisman AQSHdagi soliqlardan hisobdan chiqariladi. Agar mamlakat bilan ikki tomonlama shartnoma tuzilgan bo'lsa, unda maxsus qoidalar amal qiladi.

AQSH xalqaro amaliyotda "jahon daromadi" tamoyili asosida ish tutadi, ya'ni fuqarolar qaysi davlatda daromad olmasin, soliq to'lash majburiyati saqlanadi. Shu bois, metodlarning aniq qo'llanishi o'ta muhimdir.

1-jadvalda AQSHda ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishga oid metodlarni tahlil qilingan.

1-jadval. AQSHda ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishda qo'llaniladigan asosiy metodlar¹

№	Metod nomi	Qisqacha tavsifi	Afzalliklari	Qo'llanish sohasi
1	Soliq krediti usuli (Foreign Tax Credit)	AQSH fuqarosi chet elda to'lagan soliq miqdori AQSHdagi soliqlardan chegiriladi.	Soliq yukini pasaytiradi, takroriy soliqdan saqlaydi.	Yuqori daromadli shaxslar
2	Soliqdan ozod qilish (Exemption method)	Chet elda olingan daromad AQSHda soliqqa tortiladigan bazadan chiqarib tashlanadi	Soliq tizimini soddalashtiradi, ikkiyoqlama soliq to'lash imkoniyatidan voz kechiladi.	Ikki tomonlama shartnomalarda
3	Soliqni hisobdan chiqarish (Deduction method)	Chet elda to'langan soliqlar umumiy xarajat sifatida hisobdan chiqariladi	Mahalliy soliq majburiyatini qisman kamaytiradi	Ishbilarmon shaxslar
4	Soliq shartnomalari (Tax Treaties)	AQSH va boshqa davlatlar o'rtasida tuzilgan bitimlar orqali daromad turlari bo'yicha tartib belgilanadi	Soliq yurishini aniq belgilaydi, rezidentlikni aniqlaydi	Barcha soliq to'lovchilar


Ushbu jadvalda xalqaro miqyosda ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishda qo'llaniladigan to'rtta asosiy usul tahlil qilingan bo'lib, har bir usulning mohiyati, afzalliklari va qo'llanilish sohalari qisqacha ifodalangan. AQSH tajribasi asosida berilgan ushbu usullar global soliq siyosatida muhim o'rin tutadi. Endi ushbu usullarni tahlil qilib chiqamiz.

Soliq krediti usuli (Foreign Tax Credit) – AQSH fuqarosi chet elda to'lagan soliq miqdori AQSHdagi soliqdan to'g'ridan-to'g'ri chegiriladi. Bu nafaqat ikkiyoqlama soliq solinishining oldini oladi, balki yuqori daromadli shaxslar uchun soliq yukini sezilarli darajada kamaytiradi. Afzallik sifatida soliq yukining pasayishi va takroriy soliqdan saqlanish ko'rsatiladi. Shu bois, bu usul asosan xalqaro faoliyat yuritadigan va katta daromadga ega shaxslar tomonidan qo'llaniladi.

Soliqdan ozod qilish usuli (Exemption Method) – chet elda olingan daromadni soliqqa tortiladigan bazadan chiqarishga asoslangan. Ya'ni, chet elda topilgan daromad AQSHdagi soliq hisob-kitobidan butunlay ozod etiladi. Bu soliq tizimini soddalashtiradi va ikki yurisdiksiyada bir vaqtning o'zida soliq to'lashdan xalos etadi. Ushbu usul ko'pincha ikki tomonlama soliq shartnomalarida aks etadi va davlatlararo soliq munosabatlarini tartibga solishda muhim vosita hisoblanadi.

¹ Muallif tomonidan tayyorlandi.

Soliqni hisobdan chiqarish usuli (Deduction Method) – chet elda to'langan soliqlar umumiy xarajat sifatida hisobga olinib, mahalliy soliq bazasidan chiqariladi. Ammo bu to'g'ridan-to'g'ri chegirma emas, balki xarajat sifatida inobatga olinadi. Natijada mahalliy soliq majburiyati biroz kamayishi mumkin, lekin yuqori daromadli shaxslar uchun samarali emas. Ushbu usul asosan kichik tadbirkorlik subyektlari yoki ishbilarmon shaxslar tomonidan qo'llaniladi.



1-rasm. AQSHda ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish vositalarining qo'llanish darajasi (%)²

Soliq shartnomalari usulida (Tax Treaties) xalqaro miqyosda eng ko'p qo'llaniladigan mexanizm bo'lib, davlatlar o'rtasida tuzilgan bitimlar orqali daromad turlari bo'yicha soliq solish tartibini belgilaydi. Bunday shartnomalar orqali soliq yurishini aniq belgilash, rezidentlikni aniqlash va ikkiyoqlama soliqni bartaraf etish kabi masalalar tartibga solinadi. Shu bois, bu usul barcha soliq to'lovchilar uchun dolzarb hisoblanadi. Ushbu usullar soliq yukini optimallashtirish, ikki yurisdiksiya o'rtasidagi soliq nizolarini kamaytirish va investitsiya muhitini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Har bir usulning afzalliklari va cheklovlari bor. Masalan, soliq krediti yuqori daromadli fuqarolar uchun ma'qul bo'lsa, soliqdan ozod qilish soddalikni ta'minlaydi. Soliqni xarajat sifatida hisoblash esa faqat qisman yengillik beradi. Soliq shartnomalari esa yuridik aniqlik va huquqiy kafolatlarni ta'minlaydi. Davlatlar ushbu usullardan o'z soliq siyosatlarini va xalqaro munosabatlariga qarab foydalanadilar. AQSHda soliqdan qochishni kamaytirishda usullar tanlanishini tahliliy taqsimot 1-rasmda keltirib o'tilgan.

Yuqoridagi rasmda ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish usullaridan foydalanish tahlili keltirilgan bo'lib, unda soliq krediti usuli 60 foizni tashkil etmoqda. Bu eng ko'p qo'llaniladigan usul bo'lib, yuqori daromadli shaxslar tomonidan afzal ko'riladi, chunki u to'g'ridan-to'g'ri soliqdan chegirma berish imkonini beradi. Soliq yukini sezilarli darajada kamaytiradi. Uni tatbiq etish uchun mukammal hisobot va soliq organlari o'rtasida axborot almashinuvi kerak bo'ladi. Bu uni samarali, biroq ayni paytda murakkab usulga aylantiradi.

Soliq krediti usuli ikkiyoqlama soliqni bartaraf etishda eng samarali va keng qo'llaniladigan mexanizmlardan biri hisoblanadi. Bu usul ayniqsa xalqaro daromadga ega bo'lgan, ya'ni bir davlatda yashab, boshqa davlatda faoliyat yuritadigan jismoniy yoki yuridik shaxslar uchun mos keladi. Unga ko'ra, shaxs yoki korxona chet elda to'langan soliqlarini o'z mamlakatidagi soliq majburiyatlaridan ma'lum miqdorda chegirma qilishi mumkin. Soliq krediti usuliga muvofiq, soliq to'lovchi bir vaqtning o'zida ikki davlatda ham soliq to'lash majburiyatiga ega bo'lsa, u holda u chet elda to'langan soliqlarni o'z yurtidagi soliqlardan chegirishi mumkin. Masalan, AQSH fuqarosi Germaniyada ma'lum miqdorda daromad topib, u yerda soliq to'lasa, AQSHdagi soliq hisob-kitobida ana shu to'langan summani chegirma qilishi mumkin bo'ladi. Bu ikki davlatda bir xil daromad uchun qayta-qayta soliq to'lanishining oldini oladi. Soliq yukini kamaytirish borasida chet elda to'langan soliqlar hisobga olingani uchun jami soliq majburiyati ancha pasayadi. Takroriy soliqdan himoya qilishda bir daromad manbai uchun ikkiyoqlama soliq to'lash ehtimoli yo'qqa chiqariladi. Xalqaro faoliyatni rag'batlantirishda chet elda biznes yuritishni yoki investitsiya kiritishni qulaylashtiradi.

2 Muallif tomonidan tayyorlandi.



Bu usul asosan yuqori daromadli shaxslar va xalqaro darajada faoliyat yurituvchi korxonalar tomonidan keng qo'llaniladi. U qo'llaniladigan holatlarda soliq organlari o'rtasida aniq ma'lumot almashinuvi, hisobotlar va tasdiqlovchi hujjatlar talab etiladi. Bu esa shaffoflik va tizimli yondashuvni talab qiladi. Garchi mazkur usul samarali bo'lsa-da, uni to'g'ri tatbiq etish uchun muayyan soliq kodekslari, xalqaro shartnomalar va hisobot mezonlariga rioya qilish talab qilinadi. Ba'zi hollarda chet elda to'langan soliq to'liq emas, faqat belgilangan miqdordagina chegirma qilinadi. Soliq krediti usuli – xalqaro soliqqa tortish tizimidagi eng muhim va ishonchli mexanizmlardan biri bo'lib, u soliq to'lovchilarning ikki davlatdagi soliq majburiyatlarini uyg'unlashtirish orqali noqulayliklarni kamaytiradi. Bu usul orqali fuqarolar o'z iqtisodiy faoliyatlarini xalqaro miqyosda erkin amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Soliqdan ozod qilish usuli 25 foizni tashkil etib, ikkinchi o'rindagi keng tarqalgan usul hisoblanadi. Bu metod xalqaro shartnomalar doirasida tez-tez qo'llaniladi va soliq tizimini soddalashtirishda muhim. Chet elda olingan daromadni mahalliy soliq hisob-kitobidan chiqarish evaziga ikkiyoqlama soliqdan himoya hosil qilinadi. Bunday yondashuv aksariyat hollarda bitimlarga asoslangan bo'ladi.

Soliqdan ozod qilish usuli (Exemption Method) – rezident shaxsning chet elda olgan daromadlarini o'z mamlakatida soliqqa tortishdan ozod qilishni nazarda tutadigan mexanizm hisoblanadi. Ushbu usulda, agar fuqaro yoki yuridik shaxs chet davlatda ma'lum miqdorda daromad orttirs va ushbu daromad uchun chet elda soliq to'lagan bo'lsa, uning rezident mamlakatidagi soliq organlari mazkur daromadga yana qayta soliq solinmaydi. Amaliyotda, ikki tomonlama soliqqa tortishni bartaraf etish usullari orasida soliqdan ozod qilish usulining samaradorlik darajasi taxminan 25% deb baholanadi. Bu raqam ushbu usul qo'llanilganda, ikki tomonlama soliqqa tortilish holatlarining taxminan to'rt dan bir qismini bartaraf etishi mumkinligini anglatadi. Qolgan holatlarda boshqa usullar (masalan, kredit berish usuli yoki imtiyozli hisoblash) samaraliroq bo'ladi.

Rezident shaxs chet elda daromad olganda, masalan, o'zbekistonlik bir tadbirkor AQSHda biznes yuritib, u yerda daromad ko'radi. Daromad chet elda soliqqa tortiladi. Tadbirkor Germaniya qonunchiligiga muvofiq, u yerda belgilangan soliqni to'laydi. O'zbekistonda ushbu daromad soliqdan ozod etiladi. Agar O'zbekiston va AQSH o'rtasida ikki tomonlama soliq solishdan qochish bo'yicha bitim mavjud bo'lsa va unda "soliqdan ozod qilish usuli" ko'zda tutilgan bo'lsa, tadbirkor O'zbekistonda bu daromad uchun qo'shimcha soliq to'lamaydi. Soliq to'lovchilar uchun yuk yengillashadi, chunki bir xil daromad uchun ikki davlatda soliq to'lashga to'g'ri kelmaydi. Investorlarni rag'batlantiradi, chunki chet davlatlarda faoliyat yuritishda soliq yuki kamayadi. Mamlakatning soliq siyosati xalqaro talablarga muvofiqlashadi. Agar chet eldagi soliq stavkasi juda past bo'lsa, rezident davlat soliq tushumidan mahrum bo'lishi mumkin. Daromad manbasi va uning qonuniyligi aniq aniqlanmasa, soliqdan qochish uchun imkoniyat yaratilishi mumkin. Misol tariqasida, bir o'zbekistonlik investor AQSHda 100 mln so'm daromad orttirdi va u yerda 10% stavka bo'yicha 10 mln so'm soliq to'ladi. O'zbekistonda soliq stavkasi 15% bo'lsa ham, agar ushbu daromad soliqdan ozod qilinishi nazarda tutilgan bo'lsa, investor O'zbekistonda bu daromad uchun qayta soliq to'lamaydi.

Soliqni hisobdan chiqarish usuli 10 foizni tashkil etib, ushbu usulning hissasi nisbatan kam. Buning sababi foydadan chegirma sifatida qayd etiladi, lekin to'g'ridan-to'g'ri chegirma berilmaydi. Natijada, soliq yuki to'liq kamaymaydi. Bu usulni asosan kichik biznes va mahalliy faoliyat yurituvchi subyektlar qo'llaydi.

Soliqni hisobdan chiqarish usuli – rezident davlat tomonidan fuqaro yoki yuridik shaxsning chet elda to'lagan soliq miqdorini mahalliy soliqdan qisman yoki to'liq hisobga olishini nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, ushbu usulda soliq to'lovchi o'z davlatidagi soliq majburiyatidan chet elda to'langan soliqni hisobdan chiqaradi va faqat farq qismi to'lanadi. Soliqni hisobdan chiqarish usuli xalqaro amaliyotda keng tarqalgan bo'lsa-da, uning ikki tomonlama soliqqa tortilishni to'liq bartaraf etishdagi samaradorlik darajasi taxminan 10% deb baholanadi. Bu – ushbu usul faqat muayyan sharoitlarda to'liq samara beradi, aks holda to'liq ozodlikni emas, balki qisman yengillikni taqdim etadi.

Usulning ishlash mexanizmi: daromad manbai chet elda bo'lsa, soliq to'lovchi (jismoniy yoki yuridik shaxs) chet davlatda daromad orttiradi va u yerdagi qonunlar asosida soliq to'laydi. Soliq majburiyati vujudga kelganda, bir vaqtda ushbu shaxs o'z davlatining rezidenti sifatida ushbu daromad uchun mahalliy soliqni ham to'lashi kerak bo'ladi. Chet elda to'langan soliq hisobdan chiqarilganda, mahalliy soliqni hisoblashda chet elda to'langan soliq summasi hisobdan chiqarilib, faqat qolgan qism to'lanadi. Misol uchun, aytaylik, o'zbekistonlik tadbirkor AQSHda 100 mln so'mlik daromad orttirdi. U Turkiyada bu daromad uchun 20% stavka bilan 20 mln so'm soliq to'ladi. O'zbekistonda esa ushbu turdagi daromad uchun 15% stavka belgilangan.

Bu holda AQSHda to'langan soliq 20 mln so'm, O'zbekistondagi majburiyat 15 mln so'm; AQSHda to'langan soliq O'zbekistonnikidan yuqori bo'lgani uchun O'zbekistonda hech qanday qo'shimcha soliq to'lanmaydi, va soliq to'lovchi to'lagan summani to'liq hisobdan chiqaradi. Agar AQSHda stavka 10% bo'lganida edi, u holda AQSHda to'langan soliq 10 mln so'm, O'zbekistondagi stavka 15%, qayta to'lanadigan summasi 5 mln so'm (faqat farqi to'lanadi).

Usulning afzalliklari: qisman bo'lsa ham, ikki tomonlama soliq yuki yengillashadi. Soliq to'lovchi ikki davlatdagi faoliyatini qonuniy asosda yuritish imkoniga ega bo'ladi. Xalqaro investitsiya muhitini yaxshilaydi.

Kamchiliklari: agar chet elda to'langan soliq yuqori bo'lsa, rezident davlatdagi soliq hisobga o'tmay qoladi va ikki davlatda ham soliq to'lash ehtimoli yuzaga keladi. Hisoblash jarayoni texnik jihatdan murakkab bo'lishi mumkin. Har ikki davlatda soliq rejalari turlicha bo'lgani sababli, ba'zan tengsizliklar kelib chiqadi.

Soliq shartnomalari usulidan foydalanish 5 foizni tashkil etib, tarkibiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lsa-da, amaliyotda mustaqil usul sifatida kamroq qo'llaniladi. Bu bitimlar asosida boshqa usullar faollashadi. Soliq shartnomalari yurisdiksiyalarning aniq soliq siyosatini belgilashda xizmat qiladi va rezidentlik maqomini aniqlashda muhim.


Soliq shartnomalari usuli (Treaty-Based Method) – bu xalqaro soliq munosabatlarida ikki yoki undan ortiq davlatlar o'rtasida tuzilgan maxsus shartnomalar orqali ikki tomonlama soliqqa tortilish holatlarini bartaraf etishni nazarda tutadi. Ushbu usulda aniq davlatlar o'rtasidagi soliq majburiyatlari, imtiyozlar, daromad manbalarining taqsimoti va soliq yukini kamaytirish mexanizmlari shartnomada belgilab qo'yiladi. Ilmiy va amaliy manbalarda ushbu usulning samaradorlik darajasi taxminan 5% deb baholanadi. Bu usul boshqa usullarga nisbatan kamroq qo'llaniladi, chunki u alohida davlatlar bilan kelishuv tuzishni talab qiladi va har bir shartnoma o'ziga xos holatni qamrab oladi. Shuning uchun, bu usul umumiy hal etish vositasi emas, balki shartnoma mavjud bo'lgan holatlardagina amal qiladi.

Qo'llanish mexanizmi bo'yicha, ikki davlat o'rtasida shartnoma tuziladi. Bu shartnomalar "Ikki tomonlama soliq solishdan qochish to'g'risidagi bitim" deb nomlanadi. Ular xalqaro huquq normalariga asosan ishlab chiqiladi (masalan, OESR yoki BMT modellari asosida). Shartnoma soliq yukini taqsimlaydi, masalan, kapital foizlari, dividendlar, royalti yoki ish haqi kabi daromad manbalariga qaysi davlatda soliq solinishi shartnomada aniq belgilanadi. Daromad to'liq ozod qilinadi yoki pasaytirilgan stavka bilan solinadi.

Agar shartnoma mavjud bo'lsa, daromad manbasi bo'lgan davlat ma'lum soliq imtiyozi beradi – masalan, soliq stavkasi 15% emas, 5% qilib belgilanishi mumkin. Ikkinchi davlatda ushbu daromad soliqqa tortilishdan yoki to'liq, yoki soliq hisobdan chiqarish orqali ozod etiladi. Misol tariqasida aytaylik, O'zbekiston va AQSH o'rtasida ikki tomonlama soliq shartnomasi mavjud. O'zbekistonlik investor AQSHdagi kompaniya aksiyalaridan 100 mln so'mlik dividend oladi. AQSHda ichki qonunchilikka ko'ra bunday dividendga 25% soliq solinadi. Biroq, O'zbekiston-AQSH shartnomasiga ko'ra, dividendlar uchun faqat 5% stavka bilan soliq solinishi kerak deyilgan.

Bu holatda AQSH soliqni 5% stavkada oladi (25% emas), qolgan 95 mln so'm O'zbekistonda hisobga olinib, mumkin bo'lsa, soliqdan ozod qilinadi yoki hisobdan chiqariladi.

Buni afzallik tomonlari: davlatlar o'rtasida aniq, huquqiy jihatdan barqaror soliq munosabatlari o'rnatiladi. Soliq to'lovchi uchun soliq rejalashtirish imkoniyati kengayadi. Investorlar uchun huquqiy kafolatlar yaratiladi. Soliqdan qochish holatlari kamayishiga yordam beradi. Kamchiliklari: faqat shartnoma mavjud bo'lgan davlatlar uchun amal qiladi. Har bir shartnomada turlicha shartlar bo'lishi mumkin, bu esa soliq to'lovchilar uchun tushunishda qiyinchilik tug'diradi.



2-rasm. AQSHda ikkiyoqlama soliqqa tortishdan qochish jarayonlar sxemasi³.

3 Muallif tomonidan tayyorlandi.



Shartnoma ishlab chiqish va imzolash jarayoni murakkab va vaqt talab qiladi. Soliq organlari tomonidan noto'g'ri talqin qilinishi mumkin, bu esa huquqiy nizolarga olib keladi. Soliq shartnomalari usuli – ikki tomonlama soliqqa tortishni oldini olishdagi yuridik asoslangan va o'zaro kelishuvga tayanadigan mexanizm bo'lib, har bir shartnoma orqali aniq masalalar yechimiga erishiladi. Garchi bu usul faqat muayyan davlatlar bilan tuzilgan shartnomalar doirasida amal qilsa-da, uning yuridik kuchga ega bo'lishi va aniq huquqiy mexanizmlarini o'z ichiga olishi uni muhim ahamiyatga ega vositaga aylantiradi. Diagrammada ko'rsatilgan raqamlardan kelib chiqib, soliq krediti usuli amaliyotda eng samarali va keng tarqalgani ko'rinadi. Qolgan usullar esa muayyan sharoitlarda va shartnomalar asosida qo'llaniladi. Bu taqsimot xalqaro soliqqa tortishda qaysi mexanizmlarga ko'proq ishonch bildirilayotganini aniq ko'rsatadi. AQSHda ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish metodlaridan biri 2-rasmda keltirilgan sxema shaklida tahlil qilingan. Yuqoridagi sxemadan ko'rinib turibdiki, AQSHda ikkiyoqlama soliqqa tortishdan qochish jarayoni kengroq va to'liq tavsiflangan. Bu sxema AQSHda fuqarolar va kompaniyalar uchun soliq to'lash va ikkiyoqlama soliqqa tortishdan qochish mexanizmlarini tahlil qilishga yo'naltirilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi natijasida davlatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar tobora kengayib bormoqda. Bunday sharoitda xalqaro soliqqa tortish masalalari, ayniqsa, ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish zarurati alohida dolzarblik kasb etmoqda. Xorijiy davlatlarda faoliyat yurituvchi jismoniy va yuridik shaxslarning daromadlari bir vaqtning o'zida ham manba davlatda, ham rezidentlik davlatida soliqqa tortilishi soliq yukining ortishiga sabab bo'ladi. Bu holat investitsiya faolligining pasayishiga, iqtisodiy munosabatlarning murakkablashishiga hamda ayrim hollarda norasmiy faoliyatning kuchayishiga olib kelishi mumkin. AQSH tajribasi shuni ko'rsatadiki, ikkiyoqlama soliqqa tortish muammosini hal etishda faqat ikki tomonlama soliq shartnomalari bilan cheklanib qolish yetarli emas. Mazkur yo'nalishda ichki qonunchilik doirasida ham samarali mexanizmlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Xususan, Foreign Tax Credit (FTC) mexanizmi xorijda to'langan soliqlarni AQSHdagi soliq majburiyatlaridan chegirish imkonini beradi. Natijada ayni bir daromadni ikki marotaba soliqqa tortishning oldi olinadi va soliq tizimida adolatlilik ta'minlanadi. Ushbu mexanizm nafaqat soliq to'lovchilar manfaatlarini himoya qiladi, balki xalqaro iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirishga ham xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, AQSH xalqaro soliqqa tortish tizimida yuqori samaradorlikka nafaqat ikkiyoqlama soliq shartnomalari tarmog'i, balki ichki qonunchilikdagi ilg'or institutsional yondashuvlar orqali ham erishgan. Jumladan, FATCA va CFC kabi mexanizmlar xorijdagi daromadlar va aktivlarning shaffofligini ta'minlash, soliq bazasini kengaytirish, soliqdan bo'yin tovlash holatlarini qisqartirish hamda xalqaro axborot almashinuvi tizimini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston amaliyoti tahlili ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish sohasida tizimni yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, amaldagi ikki tomonlama soliq shartnomalari tarmog'ini kengaytirish hamda ayrim shartnomalarni zamonaviy xalqaro talablarga muvofiqlashtirish zarurati kuzatilmoqda. Shu bilan birga, xorijda to'langan soliqlarni milliy soliq majburiyatlari hisobidan aniq va tizimli tarzda chegirish mexanizmlarini rivojlantirish xorijda daromad olayotgan fuqarolar va investorlar uchun yanada qulay sharoit yaratadi.

Mazkur jihatlarni inobatga olgan holda, quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga xorijda to'langan soliqlarni hisobga olish va ularni ichki soliq majburiyatlaridan chegirishning aniq mexanizmini kiritish lozim. Bu xalqaro iqtisodiy faoliyat yurituvchi soliq to'lovchilar uchun qulaylik yaratadi hamda adolatli soliqqa tortish tamoyilini mustahkamlaydi.

Ikkinchidan, ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish to'g'risidagi shartnomalarni ko'paytirish va amaldagilarini qayta ko'rib chiqish zarur. Ayniqsa, O'zbekistonning asosiy savdo-iqtisodiy hamkorlari bilan amaldagi bitimlarni xalqaro standartlar, jumladan BEPS tamoyillari asosida yangilash muhim hisoblanadi.

Uchinchidan, soliq ma'lumotlarining avtomatik almashinuvi tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Bu xorijdagi daromadlar va aktivlar ustidan nazoratni kuchaytirish, soliq shaffofligini oshirish hamda noqonuniy daromadlarni yashirish holatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, xorijiy investorlar uchun ikkiyoqlama soliqqa tortilmaslik kafolatlarini huquqiy jihatdan aniq belgilash zarur. Bu O'zbekistonning investitsion jozibadorligini oshiradi hamda mamlakatga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini rag'batlantiradi.

Beshinchidan, xalqaro soliqqa tortish bilan bog'liq jarayonlarni samarali boshqarish uchun soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish, xalqaro elektron platformalar bilan integratsiyani kengaytirish va soliq organlarining institutsional salohiyatini oshirish muhimdir.

Umuman olganda, xalqaro iqtisodiy raqobat tobora kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda har bir davlat o'z soliq siyosatini nafaqat ichki manfaatlar, balki global soliq tendensiyalarini inobatga olgan holda izchil



takomillashtirib borishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, AQSHning ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish bo'yicha tajribasi O'zbekiston uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Mazkur tajribani milliy qonunchilik va amaliyotga moslashtirish orqali O'zbekistonda zamonaviy, shaffof, adolatli hamda investitsiyalar uchun yanada jozibador soliq tizimini shakllantirish imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Arnold, Brian J., and Michael J. McIntyre. *International Tax Primer*. 2nd ed. The Hague; London; New York: Kluwer Law International, 2002.
2. Avi-Yonah, Reuven S. "Double Tax Treaties: An Introduction." In *The Effect of Treaties on Foreign Direct Investment: Bilateral Investment Treaties, Double Taxation Treaties, and Investment Flows*, edited by Karl P. Sauvant and Lisa E. Sachs, 99–106. Oxford: Oxford University Press, 2009.
3. Doernberg, Richard L. "Overriding Tax Treaties: The U.S. Perspective." *Emory International Law Review* 9 (1995): 71–114.
4. Internal Revenue Service. *Publication 901: U.S. Tax Treaties*. Rev. September 2024. Washington, DC: IRS, 2024.
5. Kobetsky, Michael. *International Taxation of Permanent Establishments: Principles and Policy*. Cambridge: Cambridge University Press, 2011.
6. OECD. *Model Tax Convention on Income and on Capital: Condensed Version 2017*. Paris: OECD Publishing, 2017.
7. Saunders, Roy. "Understanding Double Tax Treaties." *International Business Structuring Association*, 31 July 2014.
8. United States Department of the Treasury. *Convention Between the Government of the United States of America and the Government of the United Kingdom of Great Britain and Northern Ireland for the Avoidance of Double Taxation and the Prevention of Fiscal Evasion with Respect to Taxes on Income and on Capital Gains*. London, 24 July 2001.
9. United States Department of the Treasury. *Technical Explanation of the Convention Between the United States of America and the United Kingdom of Great Britain and Northern Ireland*. Washington, DC, 22 July 2002.
10. United States Department of the Treasury. *United States Model Income Tax Convention*. Washington, DC: U.S. Department of the Treasury, 2016.
11. Van der Merwe, Diana H. "A Challenging Move on the International Stage: Zero Withholding on Direct Dividends in the New US-UK Tax Treaty." *LLRX*, 2 December 2002.
12. Викулов, К. Е. *Правила налогообложения иностранных организаций, действующих через постоянное представительство: опыт ОЭСР и правовое регулирование в России: дис. канд. юрид. наук: 12.00.14. Москва, 2011.*

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100